OLIY VA O‘RTA TA’LIM SISTEMALARIDA O‘ZBEK TILIDAGI ONLAYN TEST VEB SAHIFALARINI YARATISH VA ULARNI RIVOJLANTIRIB BORISH

Kamolova N.D. - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot va texnologiyalari universiteti Urganch filiali
E-mail: kamolova_nozima@ubtuit.uz

Annotatsiya. Biz ushbu maqolamiz orqali maktab, kollej, litsey va oliy ta’limdagi yoshlarning bilimlarini sinash va ularning tahsil olayotgan maktab, litsey, kollejlarini reyting ko‘rsatgichlarida o‘z o‘rinlarini ko‘rsatadigan o‘zbek tilidagi onlayn test veb sahifasini yaratishni taklif qilmoqchimiz.

Kalit so‘zlar: maktab, kollej, oliy ta’lim, o‘quvchi, yoshlar, test, reyting, talaba.

Kirish. Hozirgi kunda davlatimizda bir necha turdagi maktablar o‘z faoliyatini olib bormoqda. Masalan, davlat maktablari, xususiy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar va prezident maktabalari. Davlat maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar va prezident maktablari davlatga qaraydi. Xususiy maktablar esa qonun-qoidalarni o‘zlari qo‘yishadi. Kasb-hunar maktablarida asosan yoshlarni kasbga yo‘naltirishadi. Litseylarda esa ixtisoslashtirilgan maktablar kabi ayrim fanlar chuqurlashtirilib o‘rgatiladi.


Asosiy qism. Hozirda davlatimizda faoliyat olib borayotgan maktab, litsey va universitetlarnni ushbu jadvalda ko‘rsak bo‘ladi:

Biz yaratmoqchi bo‘lgan veb sahifamizga respublikamizdagi barcha maktablar, litseylar va universitetlarni joylashtiramiz va har bir o‘quvchi va talabalarni ro‘yxatga olib ularni o‘zlari o‘qib turgan sohasi va darajasiga qarab bilimini sinovdan o‘tkazamiz.


	Davlat	Xususiy	Ixtisoslashtirilgan	Prezident
Maktablar	10296	383	790	14
A.Litseylar	91	-	-	-
Universitetlar	64	70	-	1

Yana shuni aytib o‘tishimiz lozimki, bu testlarni ishlaydigan maktab o‘quvchilari test orqali o‘zlarining oliy ta’limga qanchalik tayyorliklarini sinab ko‘rishlari va qaysi sohada ko‘proq qobiliyatli ekanliklarini ko‘rishimiz mumkun. Bu esa o‘z o‘rnida yaxshi kadrlarni yetirishga xizmat qiladi. Universitet talabalari uchun esa o‘zlari tahsil olayotgan yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z bilimlarini sinab soha mutaxassisi bo‘lishlarini tekshirib borishni taminlaydi.

Maktab uchun shablon taxminan quyidagicha bo‘ladi:



Universitetlar uchun:



Shu tariqa foydalanuvchi o‘zining yo‘nalishi va universitetini tanlaydi va unga shu yo‘nalishga doir testlar chiqarib beriladi.

Saytdan foydalanish mutlaqo bepul bo‘ladi. Testlar talabalar va o‘quvchilar uchun har oyda bir marta qo‘yiladi. Shu test orqali o‘quvchilar o‘zlari uchun o‘rin olishadi reyting jadvaldan. Universitet va maktablar uchun yilda bir marta o‘tkaziladi. Bunda esa universitet va maktablar reytingdan o‘z o‘rinlarini egallashadi. Biz shu orqali respublika bo‘yicha iqtidorli yoshlarni va bilimli yoshlarni yetirib chiqarayotgan ta’lim muassasalarini bilib olishimiz mumkun.

Xulosa. Ushbu veb sayt orqali yoshlarning olayotgan bilimlarini qanchalik o‘zlashtirayotganini nazorat qilib borishimiz mumkin. Hamda respublikamizdagi maktablar o‘rtasida raqobat kelib chiqishi natijasida maktablardagi vaziyat hozirgisidan ham yaxshilanishi yoshlarni kasbga to‘g‘ri yo‘naltirish yanada yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Xalq so‘zi” gazetasi 2024-yil 27-apreldagi 82-soni
2. https://www.stat.uz/uz/
3. https://www.gazeta.uz/oz/2021/01/16/university/
4. https://olivgoh.uz/post/nodavlat-olivgohlar
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Prezident_maktablari